

TASVIRIY SAN'AT FANINING KELAJAK AVLOD HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Mamitaliev Ahmadjon G'aniyevich

*O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Andijon davlat
pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti
Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola tasviriy san'at fanining mazmun mohiyati, kelib chiqishi hamda fanning kelajak avlod uchun ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritadi va bir qancha ma'lumotlar bayon etadi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, metodika, yosh-avlod, rasm, maktab, ta'lim, rang-tasvir, ravon chiziqlar, mevalar.*

РОЛЬ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ЖИЗНИ БУДУЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: *В данной статье содержатся мысли и мнения о сущности науки изобразительного искусства, ее происхождении и значении науки для будущего поколения, а также некоторые сведения.*

Ключевые слова: *Изобразительное искусство, методика, возрастное поколение, живопись, школа, образование, цвет-изображение, плавные линии, плоды.*

THE ROLE OF FINE ARTS IN THE LIFE OF THE FUTURE GENERATION

Annotation: *This article contains thoughts and opinions about the essence of the science of visual arts, its origin, and the importance of the science for the future generation, as well as some information.*

Key words: *Fine art, methodology, age-generation, painting, school, education, color-image, smooth lines, fruits.*

Biz iste'dodli, fidoiy bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak!

Sh. Mirziyoyev

KIRISH

Mamlakatimiz istiqloлга erishganidan so'ng, ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi, tarixni tikladik, ona tilimizni angladik, ulug' ajdodlarimiz ruhini shod ettik, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va Usmon Nosir kabi bir qator bobolarimiz nomi o'z o'rniga qo'yildi. Har yili an'anaviy tarzda "9-may Xotira va qadrlash kuni" sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Ona xalqimizga "Navro'z" kirib keldi. "Ramazon" va "Qurbon hayit"larini keng miqyosda nishonlaydigan bo'ldik. Shu bilan bir qatorda mustaqillik

yoshlarga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Iqtisodiy-siyosiy va manaviy-marifiy sohalarni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya tizimini sifat jihatdan yangilash o'zbek xalqining eng oliy maqsadiga aylandi. Bugungi kunda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan barcha sohalardagi tub islohotalar, say-harakatlar va ta'linga qaratilgan yuksak e'tibor benihoya ko'zni quvontiradi. Shundagina fuqarolarning xalqning siyosiy ongi, madaniyati va ma'naviyatini shakllantira olamiz. Bunday davlat rivojlanishida insonlar eng asosiy ro'lni egallaydilar. Umumiy qilib aytadigon bo'lsak jamiyat va davlat rivojlanishida ayniqsa o'sib ulg'ayayotgan yoshlarning o'rni beqiyosdir. Bu qarashlarni ilmiy jihatdan asoslash va yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirib chiqarish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biridir. Yosh avlodni har tomonlama rivojlanishida talim tarbiya bilan bir qatorda san'at turlarining ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Fikrimizni yanada ochiqroq bayon etadigan bolsak san'at turlari ichida eng nozik va nafis sanat turlaridan biri bolmish tasviriy san'at fikrimizning yaqqol timsolidir. Tasviriy san'atni mamlakatimiz ijtimoiy hayotida amalga oshirilayotgan isloxotlarga monand tarzda milliy, tarixiy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot omillari bilan birgalikda o'zlashtirish muhim vazifaetib belgilandi. Chunki tasviriy san'at bilan bog'liq bo'lgan omil, talim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mustaqillik yillari tasviriy san'at kamchiliklarini bartaraf etish, tasviriy san'atning milliy tarixiy negizlarini mustahkamlash hamda uning zamonaviy tendensiyalarini ta'limiy qadriyat sifatida etirof etish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Tasviriy san'at talaba yoshlarni borliqni chuqur anglashga, kishilarning xissiyot dunyosini o'rganishga, go'zallikni his qilishga, ma'naviy dunyoqarashini shakllanishiga, ijodiy tasavvurlarini kengaytirishga, ularning estetik tarbiyasini rivojlantirishga yaqindan yordam beruvchi fan hisoblanadi. Ijodiy tasavvur, badiiy tarbiya, ma'naviy zavq tasviriy san'atda mujassamdir. Tasviriy san'at talaba yoshlarda nafaqat quyida keltirilgan sifatlarni shakllantiradi shu bilan birgalikda u estetik tarbiyaning ham bir ko'rinishi demakdir. O'quv yurtlarida tasviriy san'at darslarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning mazmuni va metodikasini takomillashtirish kerak bo'ladi. Bu masalani hal etishda fan, texnika va madaniyat ham alohida ahamiyat kasb etadi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan, bino planini chiza oladigan, ariq va kanallarning sxemasini tasvirley oladigan bo'lishlari talab etilgan. Rasm bolalarni yozish savodini chiqarishda ham katta ahamiyatga ega bolgan. Masalan, harfni o'rgatish uchun narsalarning tasviri chizdirilgan. Bu usuldan hozirgi zamonaviy ta'limda ham keng foydalanib kelinmoqda. Jumladan maktabgacha ta'lim muassasalari

va boshlang'ich sniflardagi barcha darslarda rasimlardan keng foydalanib kelinmoqda. Bolalarni rasm chizishga o'rgatishda qo'lni erkin harakat qilishiga alohida e'tibor berilgan. Erkin, yengil, ravon chiziqalar chizish doskada yoki papirus qog'ozlarda bajarilgan. Misr maktablarida rasm chizishga o'rgatish nazariyasi bor-yo'qligi ma'lum bo'lmasa-da, ayrim rasm chizish qoidalari qo'llanilgan. O'qituvchilar rasm chizishni (shakl, rang, o'lcham, tuzilishi v.b.) tabiatni kuzatish asosida emas, ko'proq namunadan, sxemadan ko'chirish orqali o'rgatganlar. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Misrda rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistondan ancha avval boshlangan. Italiyalik XV asr me'mori, artisti, yozuvchisi va olimi L.B.Alberti shunday deb yozadi: «Misrliklarning yozishicha, rangtasvir ishlash ularda Yunonistondan 6 ming yil avval mavjud bo'lgan». Rasm chizishga o'rgatish qadimgi Yunonistonda ham o'ziga xos yo'nalishda amalga oshirilgan. Ularda rasm ishlashga o'rgatishda tabiatni, butun borliqni o'rganishga, unda go'zalliklarni idrok etishga alohida e'tibor berilgan.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy estetik madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalar beruvchi omildir, chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u go'zallikdan bahramand bo'lishi, undan zavqlanib dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi lozim. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan sanat asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm izlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, o'qituvchilar, injenerlar, tibbiyot xodimlari, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z f'oliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqaliso'z bilan tushuntirib bo'lmaydigano'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni anglatmaydi.

Tasviriy san'at fanini o'qitishdan maqsad bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10 foizini quloq, burun, og'iz va boshqa a'zolari orqali o'zlashtiradi. Bu sifatlar borliqni udrok etish mashg'ulotlarida shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir. Tasviriy san'atni hamma umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishining foydali ekanligi buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiytomonidan uning «Buyuk didaktika» asarida rivojlantirildi. Hozirda umumta'lim maktablarining vazifalardan biri o'quvchilarni turli kasb va hunarlarga yo'naltirishirishdir.

NATIJJALAR

Tasvitiy san'at darslari o'qish, matematika, biologiya, odam anatomiyasi geometriya va boshqa qator fanlar bilan bog'liqligini quyidagi misollar orqali kurishimiz

mumkin. Masalan boshlang'ich snif o'quvchilariga matematika fanlarini tushintirishda mevalar, gullar, hayvonlar va boshqa narsalarning rasimlari orqali tushintiradigan bo'lsak odam anatomiyasi darslarida inson qomati tasviridan foydalanishimiz mumkin va albatta bundau vaziyatda o'quvchilarning tasvitiy san'atni qanchalik o'zlashtirganligi katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi tasvitiy san'atni barcha fanlar bilan bog'lab o'rganib boradigan bo'lsa, kelajakda yaratadigan asarlarida mukammalikka erishishlari muqarrar ekanligi barchamizga ma'lum. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamni boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Demakki tasviriy san'atning hayot faoliyatimizda nechog'lik muhim o'rin tutushini bilar ekanmiz avvalo tasviriy san'atni umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda boshlang'ich sinflarda qanday tarzda o'tilayotganiga va fanni o'qitish metodikasiga ham kata ahamiyat qaratishimiz lozim.

Mamlakatimiz ko'plab maktablarida quyidagi muammolarga duch kelamiz. Tasviriy san'at fanini boshlang'ich sinflarda o'z mutaxassisi o'tkazmaganligi sababli o'quvchilar tasviriy san'at fani nimani o'rgatadi, ranglar haqida, rasm chizishda nimalarga e'tibor beriladi, palitra nima, o'quv qurollarini yaxshi bilishmaydi, chiziqlar, shakllar, bo'yoqlar, asosiy ranglar, rasm chizishda ketmaketlikda ya'ni bosqichma-bosqich chizish kerakligi haqida ma'lumotga ega emaslar. O'quvchilarga tasviriy san'at fanini boshlang'ich sinfdan o'z mutaxassisi o'tgani ma'qul. Bugungi kunda o'quvchilar rasm chizib bo'yashda faqat qalamlar bilan chegaralanib qolmoqda. Ko'pgina mamlakatlar bir necha yillardan beri tibbiy ta'limda 3D texnologiyalardan foydalanishni amaliyotga tatbiq etmoqda. Masalan, Rossiyaning ba'zi tibbiyot universitetlari inson tanasini tasvirlash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanadilar - Pirogovning interaktiv anatomik jadvali. Ushbu dasturning imkoniyatlari orasida inson tanasining real o'lchamdagi 3D modeli, shuningdek, inson tanasining 4000 dan ortiq ob'ektlarining lozar va segmentar tuzilishi, intraorgan tuzilmalari va ligamentli apparatlar; 3D tanasi modelining 12 ta tafsilotlar darajasi; 3D ob'ektlar bilan interfaol ishlash; ob'ektlarning nomi va tavsifi bilan maslahatlar kiritilgan. Tasviriy san'at fanisiz mazkur dasturni ishlab chiqish mutlaqo imkonsiz. Tasviriy san'at fani haqida ma'lumotlar radio va televiniyelarda berilishi sust. Maktablarda tasviriy san'at fani haftasiga boshlang'ich sinlardan to yuqori sinflar o'quvchilari uchun 1 soatdan berilgan. O'quvchilar bilan savil-javob qilinganda tasviriy san'at fanini ko'proq o'tilishini talab qilmoqda. Tasviriy san'at fanini o'rganish orqali o'quvchilar borliqni idrok etadi va estetik didi o'sadi. Hamda san'atni bilish orqali boshqa fanlarni o'zlashtirishda zamin bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerak tasviriy san'at fanida borliqni idrok etish, o'quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va

xotiralarni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak atrofdagi nafislik va go'zallikni ko'ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy, badiiy-ijodiy faoliyatlarda foydalanish nazarda tutiladi. San'atshunoslik bo'limi o'quvchi shaxsining estetik rivojiga ko'maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san'at asrlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go'zalliklari bilan tanishtiradi. Badiiy didni shakllantiradi, san'atni sevishga o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. N. Abdullayev. San'at tarixi. 1-tom. "O'qituvchi" nashriyoti 1986-yil Toshkent
2. S. Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi. T Ilm-Ziyo, 2011
3. S. Abdirasilov, M. Xasanov. Rasm o'qitish metodikasi. T Iqtisod-moliya, 2010
4. S. Abdirasilov, N. Tolipov Rangtasvir. "Poligraf" T. 2017
5. G'. Abduraxmonov. Kompozitsiya asoslari. "Iqtisod-moliya" T. 2010
6. A. Baymetov, Abdirasilov S. "Chizmatasvir". O'quv qo'llanma.- G'ofur G'ulom matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2004.
7. B. Oripov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. "Ilm-ziyo nashriyoti" 2005-yil Toshkent.
8. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. "O'qituvchi" nashriyoti 1986-yil Toshkent.
9. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. "Fan" nashriyoti 2004-yil Toshkent.
10. B. N. Oripov. Tasviriy san'at kabineti darsdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlar. 1974-yil Toshkent.
11. R. Hasanov. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish. 1986-yil Toshkent.
12. B. Boymetov. "Qalam tasvir" o'quv qo'llanma. "ILM-ZIYO" nashriyoti. 2017-yil Toshkent.
13. X. Muratov. "Qalam tasvir" o'quv qo'llanma. "Ijod-print" nashriyoti. 2020-yil. Toshkent.
14. U. Mamatov. O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari. "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2018-yil. Toshkent.